

MUDOFAA VA XAVFSIZLIK – MUSTAQIL DAVLAT SIYOSATINING ENG USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDAGI ROLI

Dadasheva Akida Abdujabbarovna,
*Toshkent davlat transport universiteti,
"Xalqaro ommaviy xuquq" kafedrasini mudiri,
yu.f.d, professor*

Annotasiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayotiy va xavfsizligini himoya qilishi, tuzilishi va ularni tashkil etish, Har bir fuqarolar hayoti va turmush tarzining huquqiy asoslarini belgilab beradigan, qonun ustuvorligi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi ta‘minlanadigan fuqarolik jamiyatini kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mudofaa va xavfsizlik, huquqiy asoslar, qonun ustuvorligi, umume‘tirof etilganligi, inson huquq va erkinligi, insonning daxlsiz, insonparvarlik g‘oyalari.*

Annotation. *The article covers such issues as the civil society, in which the armed forces of the republic of Uzbekistan protect the state sovereignty and territorial integrity of the republic of Uzbekistan, the peaceful life and security of the population, determine the structure and legal framework of their organization, the life and lifestyle of each citizen, ensure the rule of law and equality of all citizens.*

Keywords: *defense and security, legal framework, rule of law, universal, human rights and freedom, inviolable, humane ideas of man.*

Har bir davlatning suvereniteti, fuqarolar hayoti va turmush tarzining huquqiy asoslarini belgilab beradigan asosiy qonuni – uning Konstitutsiyasidir. Asosiy qonunimiz ijtimoiy adolat hamda xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan qoidalariga asoslangan, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi ta‘minlanadigan fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy poydevori hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng davlatning mohiyati tubdan o‘zgardi. Endi barcha davlat uchun emas, aksincha, davlat inson uchun, uning erki, sha‘ni, qadr-qimmatini, bir so‘z bilan ayt ganda, inson manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qilishi belgilab qo‘yildi.

Bugun jamiyatimiz qanday yutuqlarni qo‘lga kiritayotgan bo‘lsa, qanday marralarga erishayotgan bo‘lsa, bularning zamirida xalqimizning ruhiyati, ma‘naviyati va orzu-intilishlariga hamohang tarzda yaratilgan Konstitutsiyamiz turgani hech kimga sir emas.

Konstitutsiyamizda davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdorlar jamiyat va fuqarolar oldida mas‘ul ekani

mustahkamlandi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshirishi qat'iy belgilandi.

Ta'kidlash joizki, huquqiy demokratik davlatning o'ziga yarasha mezonlari bor. Ulardan biri – insonning daxlsiz va ajralmas huquqlari ta'minlanishidir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'tirof etilgan ushbu g'oyalar Konstitutsiyamizda rivojlantirilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, Asosiy qonunimizda fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasligi shartligi to'g'risidagi qoida ham o'z ifodasini topganki, bu mezonlar insonparvarlik g'oyalariga hamohangdir.

Konstitutsiyamiz – davlatning ham, fuqarolarning ham huquq doirasida faoliyat olib borishini ta'minlaydigan, mamlakatni bashariyat orzu qilgan demokratiya va insonparvarlik prinsiplariga asoslangan huquqiy davlat barpo etishga yo'naltiradigan asosiy qonunimiz. Unda belgilab berilgan prinsip va normalar qonunlar hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aniqlashtirilib, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi munosabatlarni tartibga soldi. Ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Konstitutsiyasi bugun barchamiz uchun mo'tabar ijtimoiy-huquqiy hujjatga aylandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilishi, umumxalq muhokamasiga qo'yilishi va qabul qilinishi milliy davlatchiligimiz tarixida katta siyosiy voqea sifatida baholanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyasida adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning eng asosiy va zarur sharti sifatida belgilanib, odil sudlov tizimining chinakam mustaqilligi va ochiqqligini ta'minlash, huquq-tartibot organlari faoliyatini takomillashtirish, advokatura institutini kuchaytirish, ushbu sohalar faoliyatini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlandi.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning eng asosiy omili xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi desak, yanglishmaymiz. Shu sababli insonparvarlik, bag'rikenglik, birodarlik tamoyillarining faqat qonunlarda emas, hayotda ham o'z ifodasini topishi bizning yutug'imizdir. Konstitutsiyamiz inson huquqlarining demokratik xartiyasi bo'lib, insonparvar huquqiy davlatni shakllantirish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning strategik dasturi vazifasini o'tab kelmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz davlatimiz mustaqilligining huquqiy zamini, xalqimiz xohish-irodasining oliy ifodasi sifatida-maydonga chiqdi. U eng rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribasini hamda tarixda sinalgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan.

Shu bois Asosiy qonunimiz aynan xalqimiz asrlar osha ardoqlab kelayotgan eng ezgu fazilatlar – tinchlik, totuvlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, jamoaning fikriga

bo‘ysunish, oila muqaddasligi, ota-onalarning farzandi, farzandlarning esa ota-ona oldidagi majburiyatlari, bu borada jamiyat va davlatning mas’ulligi, mahalla va boshqa ko‘plab qadriyatlarimizning huquqiy ifodasidir. Ta’kidlash joizki, Asosiy qonunimiz mudofaa organlari tizimining ham yangidan shakllanishiga, samarali faoliyat ko‘rsatishiga oid davlatimizning ichki va tashqi siyosati ko‘lamini belgilab, xalqimiz manfaatlari, yurtimiz farovonligi hamda xavfsizligidan kelib chiqqan holda mamlakatimizning xalqaro munosabatlarda teng huquqli sub’ekt sifatidagi maqomini huquqiy jihatdan asoslab berdi.

REFERENCES:

1. Dadasheva A. A. Constitutions of the Republic of Uzbekistan period student // scientific research in Educational Sciences. – 2022. - Vol 3. – №. 10. P.288-291.
2. Dadasheva A. A. Constitutions of the Republic of Uzbekistan period student // scientific research in Educational Sciences. – 2022. - Vol 3. – №. 10. - S.
3. Dadasheva A. A. Constitution of the Republic of Uzbekistan period requirement.
4. Dadasheva A. A. the fundamentals of the implementation of public control of the civil service in Islam over the activist of Governors // academic studies in Educational Sciences.– 2022. - Vol 3. – №. Tstu Conference 1. P.117-122.
5. Abdinazarova F. O. K. Q., Dadasheva A. A. Civil law: scientific research on Educational Sciences in the new constitution of the Republic of Uzbekistan and the constitutions of foreign states//. – 2022. - Vol 3. – №.
6. Tstu Conference 2. Pp. 305-311.Dadasheva A. A. Main Directions of Activities of Local Executive Authorities in New Uzbekistan //International Journal of Social Science Research and Review. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 377-383.
7. Dadasheva A. A. The role of mass media in the development of civil society in new Uzbekistan //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C.203-207.
8. Dadasheva, Akida Abdujabbarovna. "the role of mass media in the development of civil society in new Uzbekistan." Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 203-207.
9. Dadasheva, Akida Abdujabbarovna. "Main Directions of Activities of Local Executive Authorities in New Uzbekistan." International Journal of Social Science Research and Review 6.5 (2023): 377-383
10. Dadasheva A.A. scientific research in Educational Sciences. – 2022. - T. 3. – №. Tstu Conference 2. - S. 14-19..
11. Dadasheva A. A. Main Directions of Activities of Local Executive Authorities in New Uzbekistan //International Journal of Social Science Research and Review. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 377-383.
12. Dadasheva A. A. Main Directions of Activities of Local Executive Authorities in New Uzbekistan //International Journal of Social Science Research and Review. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 377-383.
13. Abdujabbarovna D. A. Important Aspects of Public Control in the Activities of Local Executive Bodies in the New Republic of Uzbekistan //International Journal of Law and Society (IJLS). – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 99-115.

14. Abdujabbarovna D. A. Important Aspects of Public Control in the Activities of Local Executive Bodies in the New Republic of Uzbekistan //International Journal of Law and Society (IJLS). – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 99-115. BOBIX ИССЛЕДОВАНИЙ, (SPECIAL 2-2). – 2020.

15. Dadasheva. A. The Right To Freely Receive And Disseminate Information Is An Important Factor Of Direct Public Control Over The Activities Of Public Authorities And Management //scientific research in the field of pedagogical sciences. – 2022. – Vol. 3. – No. 2. Conference of TSTU. – pp. 14-19. Dadasheva A. A. The role of mass media in the development of civil society in new Uzbekistan //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 203-207

16. Abdujabbarovna D. A. Important Aspects of Public Control in the Activities of Local Executive Bodies in the New Republic of Uzbekistan //International Journal of Law and Society (IJLS). – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 99-115..

17. Dadasheva A. A. The role of mass media in the development of civil society in new Uzbekistan //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 203-207.

18. Dadasheva A. A. The role of mass media in the development of civil society in new Uzbekistan //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 203-207.

19. Dadasheva, Akida Abdujabbarovna. "the role of mass media in the development of civil society in new Uzbekistan." Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 203-207.

20. Dadasheva, Akida Abdujabbarovna. "Main Directions of Activities of Local Executive Authorities in New Uzbekistan." International Journal of Social Science Research and Review 6.5 (2023): 377-383

21. Dadasheva A. A. Constitutions of the Republic of Uzbekistan period student / / scientific research in Educational Sciences. – 2022. - Vol 3. – №. 10. - S.

22. Dadasheva A. A. Constitution of the Republic of Uzbekistan period requirement.

23. Dadasheva A. A. the fundamentals of the implementation of public control of the civil service in Islam over the activist of Governors / / academic studies in Educational Sciences. – 2022. - Vol 3. – №. Tstu Conference 1. P.117-122.